



## IMPROVING TAX LEGISLATION TO COMBAT THE SHADOW ECONOMY

**Izzatillo Khamraliyev**

*Master's student*

*Law Enforcement Academy*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Hidden economy, tax law, tax administration, economic reforms, informal activity, digitalization, fiscal discipline, budget revenues, informal labor, economic stability

**Received:** 09.05.25

**Accepted:** 11.05.25

**Published:** 13.05.25

**Abstract:** This article provides an in-depth analysis of the content, forms of the shadow economy, and the negative consequences it has on the state budget and economic stability. In particular, the role of tax legislation in reducing and preventing the shadow economy is discussed, and what positive results can be achieved through its improvement. The reforms being carried out in the tax sector in the Republic of Uzbekistan, tax administration, digitalization processes, and their role in reducing the shadow economy are analyzed separately. The author provides a detailed analysis of the existing problem and provides suggestions and recommendations for its solution.

## YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA SOLIQ QONUNCHILIGINING TAKOMILLASHUVI

**Izzatillo Xamraliyev**

*Magistratura talabasi*

*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Yashirin iqtisodiyot, soliq qonunchiligi, soliq ma'muriyatchiligi, iqtisodiy islohotlar, rasmiylashtirilmagan faoliyat, raqamlashtirish, fiskal intizom, byudjet tushumlari, norasmiy mehnat, iqtisodiy barqarorlik

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotning mazmuni, shakllari hamda u davlat byudjetiga va iqtisodiy barqarorlikka keltiradigan salbiy oqibatlar chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va oldini olishda soliq qonunchiligining roli, uning takomillashtirilishi orqali qanday ijobiy natijalarga erishish mumkinligi haqida fikr

yuritiladi. O‘zbekiston Respublikasida soliq sohasida olib borilayotgan islohotlar, soliq ma’muriyatchiligi, raqamlashtirish jarayonlari va ularning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi o‘rnini alohida tahlil qilinadi. Muallif mavjud muammoni chuqur yoritib, uni hal qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beradi.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ДЛЯ БОРЬБЫ С ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКОЙ

**Иzzatillo Hamraliev**

*студент магистратуры*

*Академия правоохранительных органов*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Скрытая экономика, налоговое законодательство, налоговое администрирование, экономические реформы, неформальная деятельность, цифровизация, фискальная дисциплина, доходы бюджета, неформальный труд, экономическая стабильность

**Аннотация:** В данной статьедается глубокий анализ содержания, форм теневой экономики, негативных последствий, которые она оказывает на государственный бюджет и экономическую стабильность. В частности, обсуждается роль налогового законодательства в сокращении и предотвращении теневой экономики, и каких положительных результатов можно добиться за счет его совершенствования. Отдельно анализируются реформы, проводимые в налоговой сфере в Республике Узбекистан, налоговое администрирование, процессы цифровизации и их роль в сокращении теневой экономики. Автор дает подробный анализ существующей проблемы и дает предложения и рекомендации по ее решению.

### Kirish

Hozirgi davrda global miqyosda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, davlat byudjetining daromad qismini oshirish va adolatli soliq tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda eng katta to’siqlardan biri sifatida yashirin iqtisodiyot ko’rsatiladi. Yashirin iqtisodiyot — bu qonuniy tartibda ro‘yxatdan o’tmagan, rasmiy statistikada hisobga olinmaydigan va aksariyat hollarda soliq to’lashdan qochish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyatdir. Ushbu faoliyat nafaqat davlatga, balki jamiyatning har bir qatlamiga bevosita salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Yashirin iqtisodiyot mavjud bo‘lgan har qanday mamlakatda soliq tushumlarining kamayishiga, raqobat muhitining buzilishiga, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga va mehnat bozorida norasmiy ish o‘rinlarining ko‘payishiga olib keladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda

bu holat iqtisodiy islohotlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, mamlakatda mavjud soliq qonunchiligi doimiy ravishda zamon talablari asosida takomillashtirib borilishi, soliq ma'muriyatçiligidagi raqamlashtirish, shaffoflik va avtomatlashtirishga asoslangan yondashuvlar joriy etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmogda. Xususan, soliq qonunchiligini liberallashtirish, soliq to'lovchilarga qulayliklar yaratish, soliq nazoratini samarali yuritish va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish choralar ko'rilmogda. Ushbu maqolada ana shu masalalar chuqur tahlil qilinib, mavjud muammolarga qarshi kurashishda qonunchilikning ahamiyati yoritib beriladi.

### **Yashirin iqtisodiyot tushunchasi va uning oqibatlari**

Yashirin iqtisodiyot – bu rasmiy iqtisodiy statistikaga kiritilmagan, davlat nazoratidan chetda qolgan, ko'pincha soliq yoki tartibga solishdan qochish maqsadida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatlar majmuasidir. Ushbu tushuncha turli manbalarda "informal economy", "shadow economy", "underground economy" kabi atamalar bilan izohlanadi.

Jahon miqyosida tan olingan iqtisodchi Friedrich Schneider (2010) yashirin iqtisodiyotni quyidagicha ta'riflaydi: "Yashirin iqtisodiyot – bu rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tmagan, davlatning soliq yoki statistika organlariga ma'lum qilinmagan iqtisodiy faoliyatdir. Ular qonuniy faoliyat bo'lishi mumkin, ammo bu faoliyatlar soliq to'lovlaridan qochish yoki mehnat qonunchiligidan chetlab o'tish orqali amalga oshiriladi"

Yashirin iqtisodiyot odatda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- Mehnat faoliyatining norasmiy shakllari (masalan, rasmiy shartnomalarsiz ishga olish),
- Soliq to'lovlaridan qochish (naqd pul asosida savdolar),
- Noqonuniy iqtisodiy faoliyatlar (giyohvand moddalar savdosi, noqonuniy qimor o'yinlari),
- Huquqiy shaklda faoliyat yuritsa-da, rasmiy hisobotlarda yashirilgan daromadlar.

Yashirin iqtisodiyotning eng katta zararli ta'siri – bu davlat byudjetiga tushumlarning kamayishi hisoblanadi. Soliq to'lamaslik natijasida davlat ijtimoiy sohalar – ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma rivoji uchun yetarli mablag' ajrata olmaydi. Bu holat uzoq muddatda jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, yashirin iqtisodiyot:

Birinchidan, adolatli raqobatga putur yetkazadi. Yashirin faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkor qonuniy faoliyat yuritayotganlarga nisbatan afzallikkлага ega bo'ladi.

Ikkinci, mehnat huquqlari buzilishiga olib keladi. Norasmiy ishchilar ko'pincha ish joyida xavfsizlik, mehnat ta'tili yoki tibbiy xizmatlardan foydalana olmaydi.

Uchinchidan, statistik noto‘g‘riliklarga sabab bo‘ladi, bu esa davlat siyosatini to‘g‘ri rejalahshtirishda muammolar tug‘diradi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi X. Xaydarov o‘zining “Iqtisodiyotda soya sektorining ahamiyati va uni tartibga solish” (2021) asarida shunday deydi: “Yashirin iqtisodiyot ko‘lami oshgan sari rasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan subyektlar soliq yukining ortishiga duch keladi, bu esa ularni ham norasmiy bozorga o‘tishga undaydi.”

Loayza va Servén (2005) o‘z izlanishlarida yashirin iqtisodiyotning kengayishi makroiqtisodiy barqarorlikni izdan chiqarishini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, yashirin iqtisodiyot rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 30–40% qismini tashkil qilishi mumkin. Medina va Schneider (2018) ta’kidlaydiki, texnologik raqamlashtirishni rivojlantirish, soliqqa oid shaffoflikni oshirish, onlayn nazorat mexanizmlarini kengaytirish orqali yashirin iqtisodiyotning oldi olinishi mumkin.

Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U nafaqat fiskal muvozanatni izdan chiqaradi, balki jamiyatdaadolatsizlik, norasmiy mehnat va qonunbuzarlik muammolarini keltirib chiqaradi. Davlat soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq ma’muriyatichilagini raqamlashtirish, hamda ijtimoiy ongni oshirish orqali ushbu muammoga qarshi samarali kurash olib borishi lozim.

### **Soliq qonunchiligining takomillashuvi va uning roli**

Soliq tizimi har qanday davlat iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Aynan soliq qonunchiligi orqali iqtisodiy munosabatlar tartibga solinadi, davlat byudjeti shakllantiriladi va iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda soliq qonunchiligining roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliq qonunchiligining takomillashuvi deganda, mavjud soliq siyosatini zamon talablariga moslashtirish, soliq yuki balansini saqlagan holda tadbirkorlik faoliyatini qonuniy doiraga jalb etish, soliq to‘lovchilarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilash hamda soliq ma’muriyatichiligi samaradorligini oshirish tushuniladi. Bu esa yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, soliq bazasini kengaytirish va budget tushumlarini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, O‘zbekistonda 2019-yildan boshlab amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida yagona soliq stavkalari belgilandi, QQS tizimi soddalashtirildi va ayrim korxonalarga soliq imtiyozlari berildi. Bu tadbirlar natijasida ko‘plab kichik va o‘rta biznes vakillari rasmiy faoliyat yuritishga o‘tgan.

Iqtisodchi olim R. Musayev o‘zining “Soliq siyosati va soliq islohotlari” nomli asarida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Soliq qonunchiligi – bu davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshiruvchi huquqiy vosita bo‘lib, u orqali nafaqat davlat budgetining daromad bazasi shakllantiriladi, balki iqtisodiyotni soyalilikdan chiqishiga ham turtki beriladi.”

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, Kanada, Germaniya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda soliq qonunchiligi doimiy ravishda yangilanadi va bu o'zgarishlar ko'pincha ochiqlik, raqamlashtirish va muvofiqlik tamoyillariga asoslanadi. Ayniqsa, soliq to'lovchilarning ishonchini oshirish maqsadida soliq jarayonlari iloji boricha soddalashtirilgan va avtomatlashtirilgan.

Bundan tashqari, elektron soliq hisobotlari tizimi, raqamli kassa apparatlari, avtomatik monitoring platformalari ham yashirin iqtisodiyotni aniqlash va soliq tushumlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yana bir muhim jihat shuki, soliq qonunchiligidagi rag'batlantiruvchi mexanizmlarning mavjudligi – ya'ni ijobjiy motivatsiya orqali ko'proq subyektlarni rasmiy doiraga jalg etish – yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishda samarali vositadir.

Soliq qonunchiligining takomillashuvi – bu faqat huquqiy islohot emas, balki iqtisodiy barqarorlik, adolatli raqobat muhiti va rasmiy iqtisodiyotni kengaytirish yo'lida muhim vositadir. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda soliq qonunlari shaffoflik, qulaylik va samaradorlik prinsiplariga asoslanmog'i lozim.

Bugungi kunda dunyoda yashirin iqtisodiyotning keng tarqalishi hukumatlar uchun ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda, jumladan, daromadlarning yo'qolishi, iqtisodiy ko'rsatkichlarning buzilishi, ijtimoiy ta'minot dasturlarining qisqarishi va aholining soliq tizimiga ishonchining pasayishi. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish siyosatning muhim masalaga aylandi va soliq islohoti ushbu yashirin sohani yoritish uchun kuchli vosita sifatida namoyon bo'ldi. Murakkab soliq qonunchiligi, soliq qonunchiligining zaifligi, rasmiy bank kanallari orqali to'lovlarini amalga oshirish uchun imtiyozlarning yo'qligi yashirin iqtisodiyot hajmiga ta'sir etuvchi omillardandir. Soliqlarning kattaroq murakkabligi soliq to'lovchilar zimmasiga og'irroq majburiyat yuklarini yuklaydi, soliq majburiyatlarini bajarishni rag'batlantirmaydi va soliq to'lovchilarni soyaga o'tishga undaydi. Tovar va xizmatlar uchun kirimsiz kassa operatsiyalari soliq to'lashdan bo'yin tovslash xavfini oshiradi.

Shu o'rinda keltirib o'tish joizki, yashirin iqtisodiyotni zararli ta'sirlari toifasiga tuxtalib o'tamiz.

Soliq tushumlarining yo'qolishi - hisobot taqdim etilmagan daromadlar va tranzaktsiyalar soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi, bu esa hukumatning davlat xizmatlari va muhim infratuzilmani moliyalashtirish qobiliyatiga to'sqinlik qiladi.

Xodimlarni himoya qilishning etishmasligi – yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi ishchilar odatda eng kam ish haqi, xavfsizlik standartlari va ijtimoiy sug'urta imtiyozlari kabi qonuniy himoyaga ega emas, bu esa ularni ekspluatatsiya va adolatsiz muomala xavfiga duchor qiladi.

Adolatsiz raqobat - an'anaviy soliqlar va tartibga solinmagan holda, norasmiy biznes rasmiy ro'yxatdan o'tgan kompaniyalarga nisbatan nohaq ustunlikka ega bo'lib, raqobatning keskinlashuviga olib keladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning buzilishi - muhim yashirin iqtisodiyot siyosatni ishlab chiqish, iqtisodiy rejalashtirish va mamlakatning umumiy iqtisodiy salomatligini baholash uchun muhim bo'lgan rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlar va statistik ma'lumotlarni buzishi mumkin.

Milliy xavfsizlik va jinoyat – yashirin iqtisodiyot jinoiy faoliyat, jumladan, pul yuvish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash va terrorizmni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Bu milliy xavfsizlik uchun katta xavf tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasining prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida tadbirkorlarga faoliyatini qonuniylashtirishda va zarur ruxsatnomalarni olishda yordam berish, shuningdek, ular bilan profilaktika ishlarini olib borish kabi faoliyat qat'iy qilib belgilangan. Shuningdek, yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladigan sabablar va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish davlatning ustuvor yo'naliшhlaridan biri etib belgilangan.

Bundan tashqari, noqonuniy olib kirilgan yoki kontrafakt tovarlarni, shuningdek, yuk tashish hujjatlarisiz mamlakat ichida harakatlanayotgan tovarlarni sotishga qarshi kurashish, shuningdek, birinchi navbatda aksizosti mahsulotlarni noqonuniy ishlab chiqarish, sotish va saqlash holatlarini aniqlash orqali davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini yuritish va daromadlarni yashirishning oldini olish zarur ekanligi keltirib o'tilgan.

Shu nuqtayi nazardan, soliq ma'muriyatçiligini takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, soliq tizimining asosiy maqsadi iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish bo'lishi kerak. Shuning uchun soliq tizimi iqtisodiy taraqqiyotni bo'g'ishdan ko'ra ko'maklashishi kerak.

Ikkinchidan, ushbu tadqiqot soliq ta'limi tizimiga soliq ta'limi faoliyatiga ustuvor ahamiyat beradigan nufuzli ijtimoiy liderlar va siyosiy rahbarlarni kiritish tavsiya etiladi. Soliq ta'limi vaziyatga qarab faollashishi va boshlang'ich ta'limdan boshlanishi kerak va o'quvchi otanonasining soliqdan qochish bilan bog'liq xatti-harakatlariga ta'sir qilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari soliq to'lovchilarning bunday noto'g'ri xatti-harakatlarini kamaytirish uchun psixologik egoistik harakatlarini aniqlashi va fosh qilishi kerak.

Uchinchidan, soliq to'lovchilarning psixologik xudbinligi natijasida soliq to'lashdan bo'yin tovlash xatti-harakatlarini kamaytirish uchun rivojlangan mamlakatlar kabi eng yangi texnologiyalarni joriy qilishi kerak. Sun'iy intellekt va tashkilotlar va hukumatlararo

integratsiyalashgan texnologiyani joriy qilish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirishga yordam beradi. Ya'ni axborot kommunikatsiya texnologiyalarga asoslangan texnologik yechimlardan keng foydalanish;

To'rtinidan, Biznes operatsiyalari uchun bank kanallari, jumladan, elektron to'lovlar va "plastik pullar" orqali rasmiy to'lovlarni naqd puldan foydalanishdan ko'ra jozibadorroq qilish.

### **Xorijiy davlatlar tajribasi: yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash va soliq qonunchiligini takomillashtirish**

Yashirin iqtisodiyot — dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud bo'lgan, iqtisodiy o'sish va byudjet barqarorligiga tahdid soluvchi muhim muammolardan biridir. Bu muammo bilan kurashishda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'zlarining soliq qonunchiligini va institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali muayyan natijalarga erishgan.

Germaniya yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha eng samarali siyosatlardan birini amalga oshirgan davlat sifatida tan olingan. Germaniya hukumati soliq yuki adolatli bo'lishiga, soliq qonunchiligining aniqligi va soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratgan. Friedrich Schneiderning (2013) ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada yashirin iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 10–11 foizidan ortmaydi. Bu natijalarga quyidagilar orqali erishilgan:

- Soliq stavkalarining maqbullashtirilishi – soliq yukining ortiqcha og'irligi kamaytirilgan.
- Elektron hisob-kitob tizimlari joriy etilgan (masalan, kassa apparatlari va e-soliq tizimi).
- Ishbilarmonlik muhiti va ishonch yuqori bo'lishi – soliq to'lovchilarni jazolash emas, balki hamkorlikka undovchi siyosat yuritilgan.

AQShda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda texnologik yechimlar asosiy rol o'ynaydi. Ichki daromadlar xizmati (IRS) kuchli raqamli nazorat tizimiga ega bo'lib, daromadlar va xarajatlarning avtomatik monitoringi amalga oshiriladi. AQShda quyidagi yondashuvlar muhim:

- Raqamlashtirish orqali soliqlarni yashirish imkoniyatlarini cheklash.
- Ogohlik kampaniyalari orqali soliq to'lovchilarning xabardorligini oshirish.
- Solodlik tizimi orqali firibgarlik xavfi yuqori sohalarni aniqlash va ularga maqsadli nazoratni kuchaytirish.

2000-yillar boshida Gruziyada yashirin iqtisodiyot darajasi juda yuqori edi (YIMning 65% gacha). Ammo 2004–2012 yillarda soliq tizimi tubdan isloh qilindi:

- Soliq turlari soddallashtirildi – avvalgi 21 turdag'i soliq o'rniqa atigi 6 ta soliq qoldirildi.
- Soliq stavkalari pasaytirildi, ayniqsa korporativ foyda va daromad solig'i.
- Davlat idoralari raqamlashtirildi, korrupsiya darajasi keskin kamaytirildi. Natijada yashirin iqtisodiyot 2012 yilga kelib YIMning 30–35 foizigacha kamaydi.

Shvetsiyada soliq to'lovchilarning ishonchi va davlatga bo'lgan ochiqlik darajasi yuqori. Shvetsiya hukumati ijtimoiy ta'minot va soliq o'rtasida bog'liqlik yaratgan: to'langan soliqlar

jamiyatga qanday xizmat qilishini ochiq tushuntiradi. Raqamlı deklaratsiyalar va automatlashtirilgan soliq hisoboti joriy etilgan. Soliq qonunchiligini buzganlar uchun jazolardan ko‘ra ko‘ngilli deklaratsiya tizimi samarali ishlaydi.

Polsha yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun 2016-yildan boshlab "Split Payment" deb nomlangan yangi soliq mexanizmini joriy etdi. Bu usulda QQS (QQS – qo‘shilgan qiymat solig‘i) avtomatik ravishda alohida hisobga tushadi, bu esa firibgarlik holatlarini kamaytiradi. Bundan tashqari, davlat tizimida elektron hisob-faktura tizimi joriy etilgan. Soliq to‘lovchilarning reyting tizimi tuzilib, halol to‘lovchilarga imtiyozlar beriladi.

Xorijiy davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash faqatgina jazoga asoslangan yondashuv emas, balki soliq qonunchiligining adolatli va shaffof bo‘lishi, soliq to‘lovchilarga ishonch bildirish, soliq stavkalarini maqbullashtirish, hamda raqamlashtirish orqali samarali amalga oshiriladi. Bu yondashuvlar O‘zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, milliy soliq tizimini takomillashtirishda muhim yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

### **Xulosa**

Yashirin iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlar uchun ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu holat iqtisodiy faoliyatning rasmiy statistikadan chetda qolishiga, davlat byudjetiga tushumlarning kamayishiga, soliq adolatsizligining yuzaga kelishiga va ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashishiga olib keladi. Aynan shu sababli yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali kurashish har bir davlatning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu kurashda soliq qonunchiligining takomillashuvi muhim vosita sifatida ajralib turadi. Adolatli, sodda, shaffof va raqamlashtirilgan soliq tizimi nafaqat soliq to‘lovchilarning ishonchini oshiradi, balki ularni rasmiy iqtisodiyot doirasida faoliyat yuritishga undaydi.

Xorijiy davlatlar — Germaniya, AQSh, Gruziya, Polsha, Shvetsiya kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, soliq yuki muvozanatlari bo‘lsa, soliqlardan qochish holatlari keskin kamayadi. Ayniqsa, soliq imtiyozlarini maqbullashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, soliq to‘lovchilarga axborot va maslahat xizmatlarini kuchaytirish muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston misolida ham keyingi yillarda soliq qonunchiligining izchil takomillashuvi, raqamlashtirish jarayonlarining kuchaytirilishi, soliq idoralari bilan tadbirkor o‘rtasidagi ishonch muhitining yaratilishi ijobjiy natijalar bermoqda. Biroq, bu yo‘nalishda islohotlarni chuqurlashtirish, xorijiy ilg‘or tajribalarni sinchiklab o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shunday qilib, yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali kurashda asosiy kalit — bu zamonaviy, barqaror va ishonchli soliq qonunchiligi hamda mustahkam institutsional baza hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Schneider, F., & Enste, D.H. (2010). Shadow Economy: An International Survey;
2. Хайдаров X. (2021). Iqtisodiyotda soya sektorining ahamiyati va uni tartibga solish. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti;
3. Loayza, N.V., & Servén, L. (2005). Informality in Latin America and the Caribbean. World Bank Policy Research Working Paper;
4. OECD (2012). Reducing Opportunities for Tax Non-Compliance in the Underground Economy. OECD Publishing;
5. Musayev R. (2018). Soliq siyosati va soliq islohotlari. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti;
6. Tanzi, V. (1999). Uses and Abuses of Estimates of the Underground Economy. Economic Journal;
7. Давранов, И. (2024). Soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish yo'llari. Перспективы реформирования и устойчивого развития народного хозяйства, 1(1), 297-300;
8. O'zbekiston Respublikasining prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni., <https://lex.uz/docs/-5073459>;
9. World Bank Reports (2015–2022) – Georgia, Poland, and Sweden reform case studies. USA Internal Revenue Service (IRS) official reports;